FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI
ILMIY-METODIK JURNAL
ISSN 3093-8694 ◆ saen.uz
2026-yil
11(1)-son

UDK: 316.42:37.013.43

Isomiddinova Shaxlo Abdusalimovna,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

RAQAMLI GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA’NAVIYATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli globallashuv jarayonlarining O‘zbekiston yoshlari ma’naviyati, milliy o‘zligi va qadriyatlar tizimiga ta’siri ilmiy-nazariy hamda tahliliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda globallashuvning yoshlar hayotidagi ijobiy imkoniyatlari, xususan, axborot olish, bilim va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, xalqaro madaniy aloqalarni kengaytirishdagi o‘rni bilan bir qatorda, ommaviy madaniyat, axborot xurujlari, iste’molchilik kayfiyati va milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘liq muammolar ham tahlil qilingan. Tadqiqot Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari, DataReportal hisobotlari, yoshlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlariga asoslangan. Tahlillar natijasida O‘zbekistonda internetdan foydalanish ko‘lamining kengayishi yoshlarning global axborot makonidagi ishtirokini kuchaytirayotgani, shu bilan birga, ularning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va milliy qadriyatlarga hurmat muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan. Maqolada yoshlarning ma’naviy barqarorligini ta’minlashda oila, ta’lim muassasalari va mahalla hamkorligini rivojlantirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli globallashuv, yoshlar ma’naviyati, milliy o‘zlik, ma’naviy qadriyatlar, axborot madaniyati, ommaviy madaniyat, mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, kitobxonlik, ma’naviy barqarorlik.

ДУХОВНОСТЬ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается влияние процессов цифровой глобализации на духовное развитие молодёжи Узбекистана, формирование национальной идентичности и систему ценностей. Наряду с положительными возможностями глобализации, такими как расширение доступа к информации, развитие знаний и профессиональных навыков, укрепление международных культурных связей, анализируются связанные с ней риски: влияние массовой культуры, информационные угрозы, потребительские настроения и проблемы сохранения национальной идентичности. Исследование основано на данных Национального комитета по статистике Республики Узбекистан, отчётах DataReportal, нормативно-правовых документах в сфере молодёжной политики, а также научных трудах отечественных и зарубежных исследователей. Результаты анализа показывают, что расширение использования интернета усиливает вовлечённость молодёжи в глобальное информационное пространство. В этих условиях особое значение приобретают медиаграмотность, критическое мышление и уважительное отношение к национальным ценностям. В статье также разработаны научно-практические рекомендации по укреплению духовной устойчивости молодёжи посредством взаимодействия семьи, образовательных учреждений и махалли.

Ключевые слова: цифровая глобализация, духовность молодёжи, национальная идентичность, духовные ценности, информационная культура, массовая культура, медиаграмотность, критическое мышление, культура чтения, духовная устойчивость.

YOUTH SPIRITUALITY IN THE CONTEXT OF DIGITAL GLOBALIZATION

Abstract. This article examines the impact of digital globalization on the spiritual development, national identity and value system of young people in Uzbekistan. Alongside the positive opportunities offered by globalization, including access to information, the development of knowledge and professional skills, and the expansion of international cultural relations, the study analyses potential challenges such as the influence of mass culture, information threats, consumerism and difficulties in preserving national identity. The research draws on data from the National Statistics Committee of Uzbekistan, DataReportal reports, national legislation on youth policy, and the academic works of Uzbek and international scholars. The findings indicate that the growing use of the internet has strengthened young people's involvement in the global information environment. At the same time, media literacy, critical thinking and respect for national values have become essential factors in developing their spiritual worldview. The article also provides practical recommendations for strengthening young people's spiritual resilience through cooperation between families, educational institutions and mahallas.

Keywords: digital globalization, youth spirituality, national identity, spiritual values, information culture, mass culture, media literacy, critical thinking, reading culture, spiritual resilience.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, ijtimoiy munosabatlar, ta’lim, madaniyat, iqtisodiyot va ma’naviy hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida axborot almashinuvi tezlashib, dunyoning turli hududlarida yashovchi insonlar o‘rtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bugungi yoshlar bir vaqtning o‘zida milliy madaniyat, oilaviy an’analar va global axborot oqimlari ta’sirida shakllanmoqda. Ular internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ta’lim platformalari va turli raqamli vositalar orqali dunyoqarashini kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shu bilan birga, mazkur jarayon yoshlarning ma’naviy qiyofasi, milliy o‘zligini anglash va qadriyatlarga munosabatida ham muayyan o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Globallashuv tushunchasi ijtimoiy fanlarda turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi. Britaniyalik sotsiolog Entoni Giddens globallashuvni uzoq masofalardagi ijtimoiy munosabatlarning kuchayishi hamda bir hududda sodir bo‘layotgan voqealarning boshqa hududlarga ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘laydi [5]. Ronald Robertson esa globallashuv jarayonida global va mahalliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, yaqinlashuvi va uyg‘unlashuviga alohida e’tibor qaratadi [6]. Jon Tomlinson-

ning fikricha, globallashuv nafaqat iqtisodiy va texnologik jarayon, balki insonlarning kundalik hayoti, madaniy tajribasi va qadriyatlar tizimiga ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisadir [7].

Mazkur nazariy qarashlar raqamli globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini o‘rganishning ilmiy asoslarini belgilab beradi. Chunki yoshlar globallashuv jarayonlarining nafaqat iste’molchisi, balki faol ishtirokchisi ham hisoblanadi. Ular xorijiy tillarni o‘rganish, xalqaro ta’lim dasturlarida qatnashish, zamonaviy kasblarni egallash va dunyo miqyosidagi ilmiy-madaniy yangiliklardan xabardor bo‘lish orqali o‘z imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq turli madaniy qarashlarning bir vaqtning o‘zida ta’sir ko‘rsatishi ayrim hollarda yoshlarning o‘z milliy mansubligi, ma’naviy mezonlari va hayotiy maqsadlarini belgilashida murakkabliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Amerikalik psixolog Jefri J. Arnett globallashuv sharoitida yoshlar dunyoqarashida global va mahalliy madaniy identifikatsiyaning birgalikda shakllanishiga e’tibor qaratadi [8]. Erik Erikson esa inson hayotining yoshlik davrini shaxsiy identifikatsiya, o‘zlikni anglash va ijtimoiy mavqeni belgilash nuqtayi nazaridan muhim bosqich sifatida izohlaydi [15]. Ushbu nazariyalar yoshlarning ma’naviy shakllanishida ijtimoiy muhit, axborot makoni va milliy qadriyatlarning o‘zaro ta’sirini chuqur o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki mamlakat aholisining salmoqli qismini yoshlar tashkil etadi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatida 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 kishini, ya’ni mamlakat aholisining 25,7 foizini tashkil etgan [9]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi yoshlarning kundalik hayoti va axborot iste’molida yangi tendensiyalarni yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ta’lim olishi, rivojlanishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilgan [1]. Shuningdek, 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda yoshlarni ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan [2].

Shu nuqtayi nazardan, maqolaning asosiy maqsadi raqamli globallashuv sharoitida O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni tahlil qilish, mavjud imkoniyat va xavflarni aniqlash hamda yoshlarning milliy o‘zligi va ma’naviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZU BO‘YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI

Globallashuv, milliy o‘zlik va yoshlar ma’naviyati masalalari xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli jihatlardan tadqiq etilgan. Xususan, E. Giddensning “The Consequences of Modernity” asarida zamonaviylik va globallashuv jarayonlarining ijtimoiy munosabatlarga ta’siri tahlil qilinadi. Muallif global aloqalarning kuchayishi natijasida inson hayotining turli sohalari o‘zaro bog‘liqligi ortib borishini asoslab beradi [5]. R. Robertson “Glocalization: Time-Space and Homogeneity-Heterogeneity” nomli ilmiy ishida global va mahalliy madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatni yoritib, ularning o‘zaro ta’siri natijasida yangi ijtimoiy-madaniy shakllar yuzaga kelishini ta’kidlaydi [6].

J. Tomlinsonning “Globalization and Culture” asarida globallashuvning madaniy hayotga ta’siri, insonlarning kundalik tajribasi va qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar keng tahlil qilingan [7]. Uning qarashlari raqamli axborot oqimlari ta’sirida yoshlarning madaniy qarashlari va hayotiy mezonlari qanday shakllanishini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

J. J. Arnettning “The Psychology of Globalization” nomli maqolasida globallashuvning inson psixologiyasi, ayniqsa, yoshlarning identifikatsiyasi va madaniy mansubligiga ta’siri o‘rganilgan. Olim global va mahalliy madaniy qarashlarning bir shaxs dunyoqarashida uyg‘unlashishi mumkinligini ta’kidlaydi [8]. E. Eriksonning “Identity: Youth and Crisis” asarida esa yoshlarning o‘zligini anglash jarayoni, shaxsiy qadriyatlarning shakllanishi va ijtimoiy muhit bilan munosabati psixologik jihatdan izohlangan [15].

Mahalliy ilmiy va ijtimoiy-siyosiy manbalarda ham yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni asrash va zamonaviy axborot muhitida ma’naviy barqarorlikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. I. A. Karimovning “Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch” asarida ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti, milliy o‘zlik va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni asoslab berilgan [4]. Sh. M. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida esa yosh avlodni bilimli, tashabbuskor, vatanparvar va zamonaviy tafakkurga ega shaxslar sifatida tarbiyalash mamlakat taraqqiyotining muhim sharti sifatida e’tirof etiladi [3].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yoshlarning ma’naviy, axloqiy va intellektual rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan huquqiy asoslarni belgilaydi [1; 2]. Milliy statistika qo‘mitasi, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi, “Yuksalish” umummilliy harakati va UNICEF tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar esa yoshlarning demografik holati, hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va ijtimoiy qarashlarini tahlil qilish imkonini beradi [9; 12; 13].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, globallashuvning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatlari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, raqamli axborot muhitining yoshlar ma’naviy dunyoqarashi, milliy o‘zligi va qadriyatlar tizimiga kompleks ta’sirini muntazam tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, global axborot imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan milliy ma’naviy merosni asrab-

avaylash o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot sifat va miqdoriy tahlil elementlarini birlashtirgan ikkilamchi ma’lumotlarni o‘rganish usuli asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma’lumotlarni umumlashtirish, kontent-tahlil va ilmiy manbalarni o‘rganish usullari tashkil etdi. Tadqiqotda yangi empirik so‘rovnoma o‘tkazilmagan bo‘lib, xulosalar ochiq e’lon qilingan rasmiy statistik ma’lumotlar, sotsiologik tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar asosida shakllantirildi.

Birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitut-siyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni va yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan davlat tashabbuslari o‘rganildi. Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali mamlakatda yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslari aniqlandi.

Ikkinchi yo‘nalishda Milliy statistika qo‘mitasining yoshlar soni va internetdan foydalanish darajasiga oid ma’lumotlari, shuningdek, DataReportal tomonidan e’lon qilingan “Digital 2026: Uzbekistan” hisoboti tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar raqamli muhitning kengayish sur’atlarini va yoshlarning global axborot makonidagi ishtiroki uchun shakllanayotgan sharoitlarni baholashga xizmat qildi.

Uchinchi yo‘nalishda “Ijtimoiy fikr” markazining yoshlar hayotiy pozitsiyalari va qadriyatlariga oid tadqiqoti hamda “Yuksalish” umummilliy harakati va UNICEF hamkorligida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari umumlashtirildi. Mazkur manbalar orqali yoshlarning oilaga munosabati, kelajakka ishonchi, hayotiy maqsadlari va mamlakat bilan bog‘liq qarashlari o‘rganildi.

To‘rtinchi yo‘nalishda globallashuv, madaniy identifikatsiya va shaxs ma’navi-yatiga oid xorijiy hamda mahalliy olimlarning nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qi-lindi. Jumladan, Giddens, Robertson, Tomlinson, Arnett va Eriksonning ilmiy yon-dashuvlari asosida raqamli globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta’sir mexanizmlari izohlandi.

Tadqiqotda asosan 2019–2026-yillarga oid statistik va sotsiologik ma’lu-motlardan foydalanildi. Manbalarni tanlashda ularning rasmiy yoki ilmiy maqomga ega ekanligi, e’lon qilingan sanasining aniqligi hamda ma’lumotlarni tekshirish im-koniyati asosiy mezon sifatida belgilandi.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari mavjud. Ikkilamchi ma’lu-motlar yoshlarning ichki ma’naviy holatini to‘liq ifodalab bera olmaydi. Shuningdek, turli manbalarda yoshlar tushunchasining yosh chegaralari bir-biridan farq qiladi. Masalan, amaldagi qonunchilikda yoshlar 14–30 yosh oralig‘idagi shaxslar sifatida belgilangan bo‘lsa, ayrim sotsiologik tadqiqotlarda 14–35 yosh oralig‘i qamrab olingan [2; 12]. Shu sababli turli manbalardagi raqamlar bevosita solishtirilmasdan, umumiy tendensiyalarni aniqlash maqsadida tahlil qilindi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida o‘rganilgan statistik ma’lumotlar, sotsiologik tadqiqotlar va ilmiy manbalar raqamli globallashuvning O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatiga ta’siri bir necha asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘layotganini ko‘rsatdi.

Birinchidan, mamlakatning demografik tarkibida yoshlarning salmoqli ulushga ega ekanligi ularning ma’naviy rivojlanishini davlat va jamiyat taraqqiyotining ustuvor masalalaridan biriga aylantiradi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-yanvar holatida O‘zbekistonda 14–30 yoshdagi yoshlar soni 9 630 556 kishini tashkil etgan. Bu jami aholining 25,7 foiziga teng [9]. Mazkur ko‘rsatkich yoshlar bilan ishlash, ularning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi va ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, internetdan foydalanish ko‘lamining kengayishi yoshlarning axborot olish va bilim egallash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirmoqda. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 10 yoshdan katta aholi orasida internetdan foydalanuvchilar ulushi 2021-yilda 76,6 foizni, 2022-yilda 83,9 foizni, 2023-yilda 89 foizni, 2024-yilda 93,3 foizni, 2025-yilda esa 94,6 foizni tashkil etgan. 2026-yil yanvar–avgust oylariga oid ko‘rsatkich 97,3 foizga yetgan [10]. Ushbu raqamlar raqamli muhitning kundalik hayotdagi o‘rni tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

DataReportal tomonidan e’lon qilingan “Digital 2026: Uzbekistan” hisobotida 2025-yil oktabr holatiga ko‘ra, mamlakatda 14,1 million ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi qayd etilgan. Bu jami aholining 37,9 foiziga teng [11]. Bunda ijtimoiy tarmoqlar auditoriyasi haqidagi ko‘rsatkichlar alohida shaxslar sonini mutlaq aniqlikda ifodalamasligi, reklama vositalari orqali qamrab olinishi mumkin bo‘lgan auditoriyani ko‘rsatishi hisobga olinishi lozim. Shuningdek, Telegram kabi ayrim messenjerlarning ushbu hisob-kitobga kiritilmaganligi yoshlarning raqamli muhitdagi real faolligi yanada keng bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Internetning keng tarqalishi yoshlar uchun masofaviy ta’lim, xorijiy tillarni o‘rganish, ilmiy manbalardan foydalanish, xalqaro tajribani o‘zlashtirish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratmoqda. Biroq axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi, tekshirilmagan ma’lumotlar va turli madaniy qarashlarning nazoratsiz iste’mol qilinishi ma’naviy dunyoqarashga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Uchinchidan, yoshlarning qadriyatlar tizimida an’anaviy ijtimoiy qarashlar muhim o‘rin egallashda davom etmoqda. “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining tadqiqotida 14–35 yoshdagi respondentlarning 91,4 foizi oilasining turmush tarzidan mamnun ekanini bildirgan, 86,9 foizi kelajakka ishonch va optimizm bilan qarashini qayd etgan, 94,6 foizi esa hayotda aniq maqsadga ega ekanini ta’kidlagan [12]. Shuningdek, respondentlarning 53,3 foizi oila qurishni muhim hayotiy qadriyat sifatida ko‘rsatgan, 43,2 foizi esa martaba, kasbiy o‘sish va tadbirkorlik muvaffaqiyatini muhim maqsad deb hisoblagan.

“Yuksalish” umummilliy harakati va UNICEF hamkorligida 2019-yilda 4500 nafar yosh ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovda respondentlarning o‘rtacha 70 foizi hech

qanday sharoitda O‘zbekistonni tark etishni istamasligini bildirgan. Shu bilan birga, so‘rov ishtirokchilarining qariyb yarmi ijtimoiy himoya, bandlik, sog‘liqni saqlash, ta’lim va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirish zarurligini ta’kidlagan [13]. Ushbu natijalar yoshlarning milliy mansublik va Vatanga daxldorlik hissi bilan bir qatorda, munosib hayot kechirish va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan intilishi ham kuchli ekanini ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, davlat siyosatida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda yoshlarning ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [2]. 2019-yilda ilgari surilgan beshta muhim tashabbusning uchinchi yo‘nalishi kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni kengaytirishga, to‘rtinchi yo‘nalishi esa yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va kitobxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan [14]. Bu ikki yo‘nalishning o‘zaro uyg‘unligi raqamli taraqqiyot va ma’naviy rivojlanish bir-birini to‘ldirishi zarurligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamli globallashuv yoshlar ma’naviyatiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Ijobiy jihatlar bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va milliy madaniyatni targ‘ib qilish imkoniyatlarida namoyon bo‘lsa, salbiy jihatlar axborot xurujlari, iste’molchilik kayfiyati, yuzaki axborot iste’moli va milliy qadriyatlarga befarqlik xavflari bilan bog‘liq.

MUHOKAMA

Olingan natijalar raqamli globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini bir tomonlama baholash mumkin emasligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, yoshlar global axborot makonining faol ishtirokchisiga aylanmoqda, ikkinchi tomondan esa oila, Vatan, milliy an’analar va hayotiy maqsad kabi qadriyatlar ularning dunyoqarashida muhim o‘rin tutmoqda. Demak, globallashuv milliy qadriyatlarning avtomatik ravishda yo‘qolishiga olib keladi, degan qarashni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish to‘g‘ri emas.

Bu jarayonni J. J. Arnettning global va mahalliy identifikatsiyaning birgalikda shakllanishi haqidagi nazariyasi asosida izohlash mumkin [8]. Zamonaviy yosh bir vaqtning o‘zida milliy madaniyat vakili va global axborot makonining faol ishtirokchisi bo‘lishi mumkin. Masalan, yoshlarning xorijiy filmlar, musiqalar va zamonaviy texnologiyalarga qiziqishi ularning milliy qadriyatlardan voz kechishini anglatmaydi. Aksincha, to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim va ma’naviy tarbiya jarayoni orqali ular xorijiy tajribani milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

R. Robertsonning glokallashuv konsepsiyasi ham mazkur jarayonni tushunishda muhim ahamiyatga ega [6]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, global va mahalliy madaniyatlar bir-biriga qarama-qarshi hodisalar sifatida emas, balki o‘zaro

ta’sir qiluvchi jarayonlar sifatida qaralishi lozim. Bugungi kunda raqamli platformalar orqali o‘zbek milliy taomlari, tarixiy obidalar, hunarmandchilik, milliy musiqa va adabiyot namunalarini xalqaro auditoriyaga taqdim etish imkoniyatlari kengaymoqda. Demak, raqamli globallashuv milliy madaniyatni zaiflashtiruvchi omil bo‘lishi bilan birga, uni dunyoga tanitish va rivojlantirish vositasi sifatida ham xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, raqamli muhitda yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan bir qator omillar mavjud. Ulardan biri ommaviy madaniyat va iste’molchilik kayfiyatining kuchayishidir. Ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etiladigan sun’iy ravishda ideallashtirilgan hayot tarzi, moddiy boylik va tashqi ko‘rinishni muvaffaqiyatning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadigan kontent ayrim yoshlarda noto‘g‘ri hayotiy tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Natijada insoniy fazilatlar, bilim, mehnatsevarlik va ma’naviy kamolot kabi qadriyatlar ikkinchi darajaga tushib qolish xavfi yuzaga keladi.

Yana bir muhim muammo axborotni yuzaki qabul qilish bilan bog‘liq. Qisqa videolar, tezkor xabarlar va doimiy yangilanib turadigan axborot oqimi yoshlarning diqqatini tez-tez chalg‘itishi mumkin. Bu esa murakkab matnlarni tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish va chuqur o‘qish ko‘nikmalariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli kitobxonlik madaniyatini zamonaviy shakllarda rivojlantirish, elektron va audio kitoblardan samarali foydalanish, mutolaa va munozara klublarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Axborot xurujlari va soxta xabarlarning tarqalishi ham yoshlar ma’naviy xavfsizligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Internetda uchraydigan har qanday ma’lumotni ishonchli deb qabul qilish noto‘g‘ri xulosalarga, asossiz qarashlarning shakllanishiga va ijtimoiy munosabatlarda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli yoshlar nafaqat axborotdan foydalanishni, balki uning manbasini tekshirish, muallifini aniqlash, turli manbalarni solishtirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishni ham o‘rganishi zarur.

Bu o‘rinda I. A. Karimov tomonidan ilgari surilgan mafkuraviy immunitetni shakllantirish g‘oyasi ham muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega [4]. Biroq zamonaviy raqamli sharoitda ma’naviy immunitetni faqat taqiqlash yoki cheklash orqali shakllantirish yetarli emas. Chunki global axborot oqimini to‘liq nazorat qilish amalda murakkab jarayondir. Asosiy e’tibor yoshlarning mustaqil fikrlashi, axborotni tanqidiy baholashi va o‘z qarashlarini asoslay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishi lozim.

Yoshlar ma’naviyatini rivojlantirishda ta’lim muassasalarining o‘rni ham beqiyosdir. Ta’lim jarayonida talabalarga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasdan, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qiyosiy tahlil qilishga, zamonaviy ijtimoiy jarayonlarga mustaqil munosabat bildirishga o‘rgatish kerak. Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida boshqa xalqlarning madaniyati, tarixi va urf-odatlarini o‘rganish bilan bir qatorda, o‘zbek xalqining boy ma’naviy merosini ham

keng yoritish mumkin. Bu yondashuv talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi va milliy o‘zlikni anglashni birgalikda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oila esa yoshlarning dastlabki ma’naviy tarbiya maskani hisoblanadi. Farzandlarda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, mas’uliyat, vatanparvarlik va insoniylik kabi fazilatlarning shakllanishida ota-onaning shaxsiy namunasi katta ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar rivojlangan sharoitda ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanishini faqat nazorat qilish bilan cheklanmasdan, ular bilan axborot mazmuni, ijtimoiy tarmoqlardagi munosabatlar va raqamli xavfsizlik haqida muntazam suhbat olib borishlari lozim.

Mahalla institutining imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlik tadbirlari, ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar, sport va ijodiy to‘garaklarni rivojlantirish ularning ijtimoiy faolligini oshiradi. Oila, ta’lim muassasasi va mahalla o‘rtasidagi hamkorlik yoshlarning ma’naviy rivojlanishi uchun yaxlit tarbiyaviy muhitni shakllantiradi.

Shunday qilib, raqamli globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyatini mustahkamlashning asosiy yo‘li zamonaviy bilim va texnologiyalarni milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarni axborot iste’molchisi emas, balki mustaqil fikrlovchi va mas’uliyatli axborot yaratuvchisi sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

XULOSA

Olib borilgan nazariy va tahliliy tadqiqotlar raqamli globallashuv O‘zbekiston yoshlari ma’naviyatiga murakkab, ko‘p qirrali va ziddiyatli ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Bir tomondan, internet va zamonaviy axborot texnologiyalari yoshlarning bilim olish, dunyoqarashini kengaytirish, xalqaro tajribani o‘zlashtirish va kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishiga xizmat qilmoqda. Ikkinchi tomondan, nazoratsiz axborot oqimi, ommaviy madaniyatning ayrim salbiy ko‘rinishlari, iste’molchilik kayfiyati va soxta ma’lumotlar yoshlarning ma’naviy dunyoqarashiga muayyan xavflarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalari O‘zbekiston yoshlarining oilaga, Vatanga va hayotiy maqsadlarga munosabati hanuz muhim qadriyatlar tizimiga tayanishini ko‘rsatadi. Bu esa milliy ma’naviy meros va zamonaviy taraqqiyot o‘rtasida uyg‘unlikni shakllantirish uchun muhim imkoniyat mavjudligini anglatadi. Shuning uchun globallashuvdan chekinish yoki uni faqat tahdid sifatida baholash emas, balki uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlarni ilmiy-pedagogik yondashuvlar orqali kamaytirish zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimida mediasavodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish lozim. Yoshlar axborot manbalarining ishonchliligini tekshirish, soxta xabarlarni aniqlash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini egallashi zarur.

Ikkinchidan, raqamli makonda milliy qadriyatlar, tarix, adabiyot, san’at va madaniy merosni targ‘ib qiluvchi zamonaviy kontentlar yaratishni rag‘batlantirish kerak. Bunda yoshlarning o‘zlari tomonidan tayyorlanadigan videolavhalar, podkastlar, elektron nashrlar va ma’rifiy loyihalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, kitobxonlik madaniyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish zarur. Elektron va audio kitoblar, onlayn kitobxonlik klublari, mutolaa tanlovlari hamda asarlar muhokamasiga bag‘ishlangan tadbirlar yoshlarning mustaqil tafakkuri va ma’naviy dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, oila, ta’lim muassasalari va mahalla o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kuchaytirish lozim. Ota-onalar uchun raqamli tarbiya, mediasavodxonlik va farzandlar bilan samarali muloqotga bag‘ishlangan seminarlar tashkil etish avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni mustahkamlaydi.

Beshinchidan, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etishda rasmiyatchilikdan voz kechib, yoshlarning qiziqishlari, tashabbuslari va ijodiy imkoniyatlariga tayanish zarur. Yoshlar ma’naviy tarbiya jarayonining faqat tinglovchisi emas, balki faol ishtirokchisi bo‘lishi kerak.

Oltinchidan, yoshlarning global axborot makonidagi faolligini milliy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirish, ularni zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallash bilan birga, o‘z xalqining tarixi, tili, madaniyati va ma’naviy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli globallashuv davrida yoshlar ma’naviyatini rivojlantirish zamonaviy ta’lim, milliy tarbiya va ijtimoiy hamkorlikning uzviy birligini talab qiladi. Ma’naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, axborotni tanqidiy baholay oladigan va milliy o‘zligini anglagan yoshlar jamiyatning barqaror taraqqiyoti hamda kelajak avlodlar farovonligining muhim kafolati hisoblanadi. Kelgusida ushbu masalani yanada chuqur o‘rganish uchun yoshlarning raqamli axborot iste’moli, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish odatlari va qadriyatlar tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni bevosita so‘rovnoma va intervyular asosida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son.
3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Giddens A. The Consequences of Modernity. – Cambridge: Polity Press, 1990.
6. Robertson R. Glocalization: Time-Space and Homogeneity-Heterogeneity // Featherstone M., Lash S., Robertson R. (eds.). Global Modernities. – London: Sage, 1995. – P. 25–44.
7. Tomlinson J. Globalization and Culture. – Cambridge: Polity Press, 1999.
8. Arnett J. J. The Psychology of Globalization // American Psychologist. – 2002. – Vol. 57, No. 10. – P. 774–783. DOI: 10.1037/0003-066X.57.10.774.

9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonda yoshlar soni qancha? – 2025. – URL: https://stat.uz.
10. O‘zbekistonda 10 yoshdan katta aholining 97,3 foizi internetdan foydalanadi // Ta’lim xabarlari. – 2026-yil 14-sentabr. – URL: https://talimxabarlari.uz.
11. Kemp S. Digital 2026: Uzbekistan. – DataReportal, 2025. – URL: https://datareportal.com.
12. Poll: Over 90% of Young People Are Satisfied with the Way Their Families Live // Kun.uz. – 2021-yil 1-iyul.
13. Sociological Survey Shows 70% of Young People Do Not Want to Leave Uzbekistan under Any Circumstances // Kun.uz. – 2019-yil 21-iyul.
14. Yoshlar ma’naviyati masalasida videoselektor o‘tkazildi // Kun.uz. – 2019-yil 19-mart.
15. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W. W. Norton, 1968.